

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING AYRIM JIHATLARI

Suyunov Abdunor Miltikbaevich

Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti dotsenti, f.-m.f.n.

Muxammadieva Moxinur Ulug'bek qizi

Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti kursanti

ANNOTATSIYA

Davlatning iqtisodiy manfaatlarini o'z vakolatlarida himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bojxona xizmati organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash – kontrabanda va bojxona qoidalari buzilishiga qarshi kurashish, noqonuniy valyuta operatsiyalarining oldini olish, bojxona to'lovlarini o'z vaqtida va to'g'ri undirish orqali davlat budjetni to'ldirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ayrim yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, tahdidlar, tashqi iqtisodiy faoliyat, bojxona organlari, bojxona tartib-tamoillari, bojxona to'lovlari, valyuta operatsiyalari, kontrabandaga qarshi kurashish, yashirin iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, raqamli bojxona.

АННОТАЦИЯ

В пределах своей компетенции защита экономических интересов и обеспечение экономической безопасности Республики Узбекистан является основной функцией таможенной службы. Обеспечение экономической безопасности во внешнеэкономической деятельности включает в себя такие вопросы, как борьба с контрабандой и нарушением таможенных правил, предотвращение незаконных валютных операций, пополнение государственного бюджета за счет своевременного и правильного взимания таможенных пошлин. В данной статье рассматриваются некоторые направления обеспечения экономической безопасности во внешнеэкономической деятельности.

Ключевые слова: экономическая безопасность, угрозы, внешнеэкономическая деятельность, таможенные органы, таможенные процедуры, таможенные пошлины, валютные операции, борьба с контрабандой, теневая экономика, цифровая экономика, цифровая таможня.

ABSTRACT

Protecting the economic interests of the State within its competence and ensuring its economic security is the main function of the customs service. Ensuring economic security in foreign economic activity includes such issues as the fight against smuggling and violation of customs rules, prevention of illegal currency transactions, replenishment of the state budget through timely and correct collection of customs duties. This article discusses some areas of ensuring economic security in foreign economic activity.

Key words: *economic security, threats, foreign economic activity, customs authorities, customs procedures, customs duties, currency transactions, anti-smuggling, shadow economy, digital economy, digital customs.*

KIRISH

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, uning mustaqilligini, barqarorligini ta'minlash kafolatidir. Iqtisodiy xavfsizlik davlat xavfsizligining muhim shartlaridan biridir. U milliy resurslar ustidan davlat nazoratini o'rnatadi, milliy manfaatlar himoyasi nuqtai nazaridan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi, mamlakat iqtisodiyoti va ishlab chiqarish qudratini oshiradi.

Ilk qarashda, "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi iqtisodiy manfaatlarning xavfdan holi ekanligi, himoyalanganligini anglatadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlat boshqaruv organining ahamiyati to'g'risida so'z yuritilganida, albatta uning biror bir shaxs yoki guruh manfaatlarini himoyalanihi nuqtai nazaridan emas, balki shaxs, guruh, jamiyat va davlat manfaatlarini mujassam etgan milliy iqtisodiyot xavfsizligidagi ahamiyatiga izoh beriladi. Bu ma'noda, "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarish organlari atamashunosligida yangi hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar boshqaruv tuzilmalari amaliyotida esa avvaldan qo'llanib kelinayotgan tushuncha bo'lib, keng sharhlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Rus iqtisodchi olimi V.Pankovning talqinicha, "milliy iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiyotning shunday holatiki, bu uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining bir zayl davom etishiga halal beradigan, aholining erishilgan hayot darajasini izdan chiqarib, jamiyatda kuchli ijtimoiy tanglikni yuzaga keltiradigan, shuningdek, davlatning

suverentligiga xavf tugʻdiradigan tashqi va ichki omillar taʼsiriga “bardoshli immuniteti” bilan tavsiflanadi¹”.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Y. Prudiusning fikricha “iqtisodiy xavfsizlikning uch asosiy darajasi mavjud boʻlib, quyi (asosiy) darajasi oʻz ichiga moddiy bazani, oʻrtacha darajasi tashkiliy-huquqiy asoslarni, yuqori darajasi uni taʼminlashning chora-tadbirlaridan iborat”².

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga koʻra:

“iqtisodiy xavfsizlik – bu shunday sharoitki, unda milliy iqtisodiyotning mustaqilligi, barqarorligi, bardavomligi taʼminlanadi, doimiy yangilanish va muvofiqlashish qobiliyati yaratiladi”;

“iqtisodiy xavfsizlik deganda, iqtisodiyotning milliy va xalqaro darajada umumiy ehtiyojlarni samarali qondirish qobiliyati tushuniladi”;

“iqtisodiy xavfsizlik deganda, milliy iqtisodiyotning normal faoliyatini, aholining mavjud turmush darajasini buzilishiga taʼsir etuvchi, oqibatda, jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni yuzaga kelishi, hamda davlat hayotiga xavf solishi mumkin boʻlgan, tashqi va ichki tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyati tushuniladi”.

“iqtisodiy xavfsizlik bu shunday holatki, xalqaro iqtisodiy tizimda ishtirok etayotgan milliy xoʻjalikka, oʻz iqtisodiy suverenitetini amalga oshirish, iqtisodiy qudratini mustahkamlash va turmush darajasi sifatini yaxshilash imkonini beradi”.

Ilmiy adabiyotlarda milliy iqtisodiy xavfsizlik tushunchasiga yagona taʼrif berilmagan. Ayrim mutaxassislar iqtisodiy xavfsizlikni xalqaro iqtisodiy tizim xavfsizligi muammolari bilan bogʻlagan holda (iqtisodiy oʻsishning bir xilda emasligi, qarzдорlikning ortishi, ochlikning tarqalib borishi va shunga oʻxshash boshqa jahon iqtisodini beqarorlashtiruvchi omillar), boshqa mutaxassislar esa, milliy iqtisod oʻsishiga taʼsir etuvchi sharoit yaratish (xorijiy xom-ashyo va resurs manbalaridan foydalanish, investitsiya kirib kelishi barqarorligi, tovar va xizmatlar ayrboshlanishi erkinligi kafolatlanganligi) bilan bogʻlagan holda taʼriflaydi.

Yuqoridagi taʼriflardan koʻrinib turibdiki, iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari oʻzida suverenitet, iqtisodiy qudrat, raqobatbardoshlik, iqtisodiy oʻsish, normal turmush darajasi kabi asosiy elementlarni mujassam etgan.

Mamlakatning iqtisodi oʻsib borishi sari, tashqi sharoit va ichki omillar oʻzgarib, uning taʼsirida mamlakat iqtisodiy manfaatlari yangidan shakllanib boradi. Shu bois, bir jihatdan, iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi doimiy oʻzgartirish kiritish va aniqlikni

¹ В.Паньков., Экономическойбезопасность: сущность и проявления. Международная жизнь, 2010, №12, с.107-119,

² Прудюс Е. В, «О понятии и системе экономической безопасности», Бизнес в законе, 2008, №1, С.66-70

talab etsa, boshqa jihatdan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, manfaatlariga ta'rif berishda hamda xavflarni aniqlashda, muayyan tarixiy davr yoki biror bir davlat amaliyotiga yondoshilganligini kuzatish mumkin.

“Iqtisodiy xavfsizlik” atamasi rasman 1985 -yilda BMTning Bosh Assambleyasining 40-sessiyasida “Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik” rezolyusiyasida qabul qilingan. Unda har bir mamlakatning taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi maqsadida, xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlanishiga ko'maklashish lozimligi belgilangan. BMT Bosh Assambleyasining 42-sessiyasida – Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilingan.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to'xtalib o'tish kerak deb hisoblaymiz. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy va boshqa omillar ta'siri tahdidlaridan himoya qilishga yo'naltiriladi.

Tahdid – shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi holatini baholash me'yorlaridan biri hisoblanadi. Tahdidlarni tasniflashga muayyan yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda 467-I-son qonuni bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasida ko'rsatib o'tilgan. Bunda, ular maqsadli qaratilgan ob'ektlariga - shaxsga, jamiyatga va davlatga solinadigan, tahdidga ko'ra, tashqi va ichki, real va potensialga bo'linadi.

Namoyon bo'lishining miqyosi yoki tarqatilganligiga ko'ra, global, mintaqaviy va milliyga bo'linadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda bojxona organlarining o'rni ahamiyatli hisoblanadi. “Davlat bojxona xizmati to'g'risida”gi qonunda bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, mamlakat hududiga kirib kelayotgan tovarlarning bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish, bojxona to'lovlarini undirish kabi vazifalarni bajarishlari belgilangan.

Bojxona organlarining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy funksiyalari: 1) fiskal, 2) himoya, 3) rag'batlantirish, 4) proteksionistik, 5) nazorat, 6) huquq-tartibot, 7) axborot berish hisoblanadi.

Fiskal funksiya - davlat budjetining daromadlar qismini bojxona bojlari, soliqlar va yig'implarni undirish orqali to'ldirish.

Himoya funksiyasi - bojxona organlari xorijiy eksportchiga davlat subsidiyalari taqdim etilgan ishlab chiqarishdagi import tovarlar yoki tovarlarni dumping sotish oqibatida ichki korxonalarga yetkazilgan iqtisodiy zararining oldini oladi. Kompensatsiya, maxsus va dumpingga qarshi bojlar himoya vositasi sifatida qo'llaniladi.

Rag'batlantirish funksiyasi - bojxona organlari import tovarlar oqimini past bojxona stavkalarini qo'llash orqali rag'batlantiradi. Ayrim hollarda tovarlar importiga bojxona to'lovlari belgilanmasligi ham mumkin.

Proteksionistik funksiya - davlatning ichki bozorini chet el raqobatidan himoya qilish va tovar ishlab chikaruvchilarning tashqi bozorga chiqishini rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosati.

Nazorat funksiyasi - bojxona organlari tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya qilishini, valyuta nazoratini, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni nazorat qiladi.

Axborot funksiyasi - bojxona organlari davlat va hukumat rahbariyatiga, vakolatli davlat organlariga tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarini taqdim etadi.

Huquqni muhofaza qilish funksiyasi - bojxona organlari kontrabanda va bojxona qoidalarini buzish sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashadi.

So'nggi -yillarda bojxona organlarini isloh etish, ularning samaradorligini oshirish va ularning faoliyatiga ilg'or, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

tovar va transport vositalarini «yalpi» bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi bekor qilindi hamda ularni tanlov asosida bojxona nazoratidan o'tkazishni nazarda tutuvchi xavflarni boshqarish tizimi joriy etildi;

vakolatli iqtisodiy operatorlar instituti joriy etildi;

bojxona rasmiylashtiruv va tovarlarni chiqarib yuborish vaqti bir necha marta qisqartirildi;

chegara bojxona postlarini jahondagi ilg'or ishlab chikaruvchilarning zamonaviy inspeksion-ko'rik majmualari bilan jihozlash amalga oshirildi.

Hozirda bojxona tartib-tamo-yillarini yanada soddalashtirish, bojxona tizimida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali inson omilini kamaytirish, bojxona nazorati shakllarini xavflarni boshqarish prinsiplariga asoslangan zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, sodda qilib aytganda “Raqamli bojxona”ga o‘tish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishda axborot tizimlarining o‘rni katta ekanligini tushungan holda, rasmiylashtiruv bilan bog‘liq jarayonlar to‘liq avtomatlashtirildi.

Bugungi kunda bojxona organlari 65 ta axborot tizimlari va 28 ta interaktiv xizmatlar (*shundan, 2020 -yil davomida 6 ta axborot tizimlari va 13 ta interaktiv xizmatlar*) tatbiq etilgan.

Xususan, bojxona organlarida “Xavfni boshqarish” tizimining joriy etilishi natijasida, bugungi kunda qonunga itoatkor tadbirkorlarning eksport va importga yo‘naltirilayotgan mahsulotlari tezkorlik bilan bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2017-yil 22-dekabr) bojxona organlarida 2018-yildan boshlab tadbirkorlik sub’ektlari uchun bojxona ko‘rigida xavf-xatardan ogoh etish tizimi, ya’ni tadbirkorlarning qanchalik halol ekaniga qarab, ularni “yashil” va “qizil” yo‘laklar orqali o‘tkazishni joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab bergan edi.

Shu maqsadda qabul qilingan “Bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon davlat bojxona xizmati organlari tizimidagi keng ko‘lamli islohotlarning yangi davrini boshlab berdi.

Farmonga binoan tovar va transport vositalarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish jarayonida “Xavfni boshqarish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga tatbiq etish belgilandi.

Natijada, “yalpi” bojxona nazoratini o‘tkazishdan voz kechgan holda, xavf profillari yoki tasodifiy tanlov asosida tovar va transport vositalarining bojxona nazorati 4 ta yo‘laklardan biriga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilmoqda. Xo‘sh, bu yo‘laklar bir-biridan qanday farqlanadi.

“Sariq yo‘lak”, bunda bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma’lumotlarni tekshirish bo‘yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o‘rta ko‘rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;

“Qizil yo‘lak”, bunda bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko‘rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;

“Yashil yo‘lak”, bunda xavf darajasi past bo‘lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi;

“Ko‘k yo‘lak”, bunda xavf darajasi o‘rta ko‘rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Xo‘sh, xavf o‘zi nima? Xavf bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmasligi ehtimolining darajasi bo‘lib, xavfni boshqarish - xavfning oldini olish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo‘llanilish samaradorligini baholash, shuningdek bojxona operatsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, bojxona organlarida mavjud bo‘lgan axborotning uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko‘rib chiqilishini nazarda tutuvchi doimiy ishlardir.

Sodda qilib aytganda, xavfni boshqarish tizimi bojxona qoidalariga amal qiluvchi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, o‘rnatilgan tartibotlarga rioya qilmaydigan TIF ishtirokchilari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga mo‘ljallangan.

Amaldagi qonunchilikda bojxona rasmiylashtiruv muddati uch kun qilib belgilanganligiga qaramasdan tovarlarni rasmiylashtirish uchun sarflanadigan vaqtning qisqarishiga erishildi.

Tizim ko‘magida tovarlarni bojxona ko‘rigisiz rasmiylashtirish amaliyoti joriy etildi. Xususan, tizim joriy etilishiga qadar barcha tovarlar bojxona ko‘rigidan o‘tkazilar edi. Ushbu tizim joriy etilishi bilan bojxona ko‘riklari soni - 1,6 marotaba kamayib, ko‘rik samaradorligi - 1,7 baravarga ortdi. Tizimi orqali eksportda 82,9 %, importda 62,4 % yuklar soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirildi. Xavfni boshqarish tizimi orqali eksportda tovarlarning vazni bo‘yicha 95 %, tovar partiyalarining 85 %, importga rasmiylashtirilgan tovarlarning og‘irligi bo‘yicha 66 %, tovar partiyalarining 49 % bojxona ko‘rigisiz amalga oshirilmoqda. Vaqt sarfi eksportda 4,5 martaga va importda 2 barobarga qisqardi.

Mazkur tizim joriy etilishga qadar barcha TIF ishtirokchilariga bojxona organlari tomonidan bir xil baho berilgan bo‘lsa, bugungi kunda (2021 -yil iyun holatiga) jami 105 800 ta TIF qatnashchilarining faoliyati ko‘rsatayotgan bo‘lib, ulardan 74 403 tasi halollik darajasi bo‘yicha baholandi.

2021-yilning yanvar-iyun oylari davomida bojxona organlarida rasmiylashtirilgan bojxona yuk deklaratsiyalarining 29 foizi yoki 113 007 tasi “yashil” yo‘lak tartibida;

47 foizi yoki 184 948 tasi “sariq” yo‘lak tartibida;

24 foizi yoki 92 819 tasi “qizil” yo‘lak tartibida rasmiylashtirilgan.

“Xavfni boshqarish” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilishi, xavflarni minimallashtirish choralari qo‘llanilishi natijasida o‘tgan davr mobaynida davlat budjetiga 101,3 mlrd. so‘mlik qo‘shimcha bojxona to‘lovlari undirildi.

Jahon banki O‘zbekistonni “Biznesni yuritish” xalqaro reytingi doirasida biznesni ilgari surish sohasida ulkan islohotlarni amalga oshirgan davlat sifatida qayd etdi va bojxona tizimida xavflarni tahlil qilish asosida sifat jihatidan yangi bojxona nazorati tartiblari joriy etilganligini ta’kidlagan.

2020-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etilgan “Yagona darcha” bojxona axborot tizimining bugungi faoliyati haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, mazkur tizim orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda 6 ta organning 17 ta ruxsat berish tusidagi hujjatlarini inson omilisiz berish tartibi joriy qilindi.

Davlat bojxona qo‘mitasi “Monitoring” AATga Rossiya, Qozog‘iston va yaqindan boshlab qo‘shilgan Afg‘oniston bojxona xizmatlari tomonidan O‘zbekistonga eksport uchun rasmiylashtirilgan bojxona yuk deklaratsiyalari elektron shaklda yuklanib tovarlar respublikamiz hududiga kirib kelish jarayonida barcha zarur ma’lumotlarni oldindan olish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston a’zo bo‘lgan (21.12.2020-yildagi O‘RQ-654-son) Bojxona tartib - taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish bo‘yicha Xalqaro Kioto konvensiyasi (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) Bosh ilovasi 6-bob 6.2-standartiga muvofiq, bojxona nazorati bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash uchun zarur darajada cheklanadi. Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va jadallashtirish hamda bir vaqtning o‘zida TIFning davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini ta’minlash vositalaridan biri bojxona auditi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 5 iyundagi PF-6005-son Farmonida bojxona nazorati shakli sifatida tovarlar chiqarib yuborilgandan keyin TIF ishtirokchisi faoliyatini baholash hamda ularning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojxona auditini amalga oshirish belgilangan.

Bojxona auditini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, bojxona auditi - tovarlarni chiqarishga ruxsat berilgandan so‘ng bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilganligini vakolatli shaxslar tomonidan bojxona rasmiylashtiruv jarayonida taqdim etilgan hujjatlarni moliya-xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq hujjatlarda aks ettirilgan ma’lumotlar bilan solishtirgan holda o‘rganish va tekshirishga asoslangan bojxona nazorati shakli.

Bojxona auditi ikki xil usulda amalga oshiriladi:

kameral bojxona auditi — bojxona auditini vakolatli shaxsning ish joyi va yoki oʻz faoliyatini amalga oshiradigan hududga bormagan holda amalga oshirish;

sayyor bojxona auditi — bojxona auditini vakolatli shaxsning ish joyi yoki oʻz faoliyatini amalga oshiradigan hududda yoxud tovarlar joylashgan joyda amalga oshirish.

Bojxona auditi bojxona qoidalariga amal qiluvchi tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, oʻrnatilgan tartibotlarga rioya qilmaydigan TIF ishtirokchilari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga moʻljallangan.

Jahon savdo tashkilotining maʼlumotlariga koʻra, bojxona auditining amaliyotga joriy etilishi savdo xarajatlarining 14,3 foizga kamayishiga va jahon savdosini 1 trln. AQSh dollariga oshishiga olib kelishini oʻz tavsiyalarida taʼkidlab oʻtgan.

Bojxona auditi yoʻnalishidagi bojxona organlariga belgilangan vazifalar ijrosi boʻyicha, 2021-yil yanvar-iyun oylari davomida jami 56,7 mlrd soʻmlik qoʻshimcha bojxona toʻlovlari hisoblanib, bugungi kunga qadar mazkur qoʻshimcha hisoblangan bojxona toʻlovlarining 12,2 mlrd soʻm (21,5%) qismi undirib olindi hamda 21,2 mlrd soʻmlik tovarlar ushlab qolindi.

Olib borilgan tahlil ishlari natijasida quyidagi yoʻnalishlarda qoʻshimcha bojxona toʻlovlari hisoblangan:

bojxona toʻlovlaridan berilgan imtiyozlar notoʻgʻri qoʻllanilishi natijasida 42,2 mlrd soʻm (jami qoʻshimcha hisoblangan bojxona toʻlovlarining 74,6%);

bojxona qiymatiga aniqlik kiritilishi natijasida 4,8 mlrd soʻm (8,5%);

tovarlarga nisbatan tarif preferensiyalari notoʻgʻri qoʻllanilishi natijasida 3,3 mlrd soʻm (5,8%);

tovarlarning TIF TN kodlari notoʻgʻri tasniflanishi natijasida 2,4 mlrd soʻm (4,2%);

ushlab qolingani tovarlarning sud qarori asosida egasiga qaytarilishi natijasida bojxona toʻlovlari undirilishi boʻyicha 1,2 mlrd soʻm (2,1%);

bojxona stavkalari notoʻgʻri belgilanishi natijasida 63,4 mln soʻm (0,1%);

boshqa yoʻnalishlarda olib borilgan tahlil ishlari natijasida (misol uchun, bojxona koʻrigi, utilizatsiya yigʻimi va boshqalar) 2,6 mlrd soʻm (4,6%).

Endilikda tadbirkor tomonidan import qilingan tovarlar avtomatlashtirilgan dastur orqali rasmiylashtirib, inson aralashuvisiz qisqa fursatda chiqarib yuboriladi. Keyinchalik “Bojxona auditi” dasturi tahlil usullari orqali xavf obʼektini tanlab olib, tekshirib koʻrish yuzasidan topshiriq beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2018-2020-yillardagi tashqi savdo aylanmasi va davlat budjeti daromadlar qismiga o‘tkazilgan mablag‘ ko‘rsatkichlari³ (mln.AQSh doll).

Ko‘rsatkichlar	Baholash tavsiflari		
	2018	2019	2020
Tashqi savdo aylanmasi	33 42 9,9	41 75 1,0	36 299 ,3
Eksport	1399 0,7	1745 8,7	15127, 7
Import	19 439,2	24 292,3	21 171,5
O‘zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasi	21 285,5	27 289,2	24 429,6
O‘zbekistonning MDH mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasi	12 144,4	14 461,8	11 826,4
Tashqi savdo balansi	-5 448,5	-6 833,6	6 043, 8
Respublika budjetiga bojxona to‘lovlarining o‘tkazilishi (trl.so‘m)	11,4	17,1	24,7

Bugungi kunda bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri kontrabanda va bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘lib, bu borada 2020 -yilda bir qator maqsadli tadbirlar amalga oshirilgan.

Xususan, mazkur yo‘nalishda 2020 -yilda 9586 ta huquqbuzarlik holatlari aniqlanib, daliliy ashyo sifatida 424,4 mlrd so‘mlik tovar-moddiy boyliklari ushlab qolindi. Raqamlarga murojaat qilsak, 2021 -yil boshidan 20 aprel kuniga qadar 3 527 ta huquqbuzarlik holati aniqlanib, 259,3 mlrd so‘mlik tovar-moddiy boyliklar ashyoviy dalil sifatida ushlab qolindi. Shuningdek, qonunbuzilish holatlari bo‘yicha jami 161,1 mlrd so‘mlik qo‘shimcha bojxona to‘lovlari hisoblanib, undirishga qaratildi.

Shuningdek, bojxona qiymatini pasayishining oldini olishga qaratilgan 150 ga yaqin mantiqiy nazorat shakllari tomonidan bojxona qiymatini

³Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси ва Давлат божхона қўмитаси маълумотларидан фойдаланилган.

pasaytirilishining oldini olish hisobiga 2020-yilda 8402 holatda 195 mlrd. 213,9 mln. so'm bojxona to'lovlari yo'qotilishining oldi olindi. Bojxona qiymatini nazorat qilish yo'nalishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish natijasida qo'shimcha 305,4 mlrd. so'm bojxona to'lovlari undirildi.

Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari tahlil qilinganda, tovarning nomini yoki TIF TN kodini bojxona stavkalari past miqdordagi o'xshash tovarlarga o'zgartirilishi natijasida import bojxona boji stavkalarining noto'g'ri qo'llanilish holatlari uchrab turibdi. Bu holat 2020 -yilda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining tarkibida 8,8 foizni tashkil etdi.

XULOSA

Bojxona xizmati organlari xom-ashyo, tovar, valyuta, xizmat va kapital olib kelish, olib chiqish ustidan davlat nazoratini o'rnatish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, davlat budjeti daromadini oshirish kabi muhim vazifalarni bajarishi barobarida mamlakat iqtisodiy manfaatlarini o'z vakolatlari darajasida himoya qiladi va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

Shu maqsadda, bojxona organlari oldida turgan quyidagi muhim vazifalarni aniqlashga harakat qilindi:

birinchidan, O'zbekistonning Butunjahon savdo tashkilotiga, YevroOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lishiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmlarini bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish, huquqiy, ma'muriy, tashkiliy-texnik jihatdan bojxona ishini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish zarur. Islohotlar, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga to'siq bo'layotgan yoki tovarlar harakati sur'atiga ta'sir etayotgan ma'muriy cheklovlarni aniqlash, qisqartirish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada soddalashtirish prinsipiga tayanish lozim;

ikkinchidan, bojxona ishi, xususan bojxona nazoratini amalga oshirishda zamonaviy tekshiruv, kuzatuv texnik vosita va moslamalarni qo'llash, tashqi axborot almashishning yagona lokal tizimini yaratish, axborotni qayta ishlash texnologiyalari va tezkor aloqa vositalaridan foydalanish orqali tizimni to'liq raqamlashtirish, idoralararo va davlatlararo texnologik dasturlar asosida ishni tashkil etish lozim.

Umuman, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini e'tiborga olib, uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish va salohiyatini yanada mustahkamlash, mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va tamo-yillariga tayangan holda ilmiy asoslanilgan islohotlarni olib borish zarur.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni. T., 2000-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 24 noyabrdagi PF-5582-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 iyundagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-6005-son Farmoni.